

O'ZBEK TILIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING TARIXIY VA ARXAIK KO'RINISHLARI

Shaxriddinov Olmas Faxriddin o'g'li,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
olmosbekshaxriddinov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixan tilda shakllangan paremiologik birliklar va ularning vaqt o'tishi natijasida arxaiklashib borishi to'g'risida mulohaza yuritildi. Paremiologik birliklarning tarixiy ko'rinishlarini topishda barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak manba bo'lgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga murojaat qilindi. Hozirda nutq jarayonida qo'llanilib kelayotgan maqollar, matallar va iboralarning ma'no jihatdan barqaror saqlanganligi hamda shakl jihatdan o'zgarib borishi misollar orqali ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar. Paremiologik birlik, maqol, matal, ibora, arxaiklashish, "Devonu lugotit turk", ma'no ko'chishi, shakl o'zgarishi.

ÖZBEK'TE PAREMİYOLOJİK BİRİMLERİN TARİHSEL VE ARKAİK TEZAHÜRLERİ

Shahriddinov Almas Fakhriddin ogle,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisidir

Özet. Bu makale, dilde tarihsel olarak oluşan paremiyolojik birimlere ve zamanın bir sonucu olarak arkaikleşmelerine yansımıştır. Paremiyolojik birimlerin tarihsel görüşlerini bulurken, Mahmud Koshgari'nin tüm Türk halkları için ortak bir kaynak olan "Devonu sözlük türkçesi" ne atıfta bulunulmuştur. Şu anda konuşma sürecinde kullanılmakta olan atasözleri, atasözleri ve deyimlerin örneklerinin, biçim değiştirmenin yanı sıra bir anlamda istikrarlı bir şekilde sürdürüldüğü gösterilmiştir.

Anahtar kelimeler. Paremiyolojik birim, atasözü, matal, deyim, arkaikleştirme, "Devonu lugotit türk", anlamın yer değiştirmesi, biçim değişikliği.

ИСТОРИЧЕСКИЕ И АРХАИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Шахриiddинов Алмас Фахриiddинович,
магистрант Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В этой статье рассматривались паремиологические единицы, исторически сложившиеся в языке, и их архаичность с течением времени. В поисках исторических проявлений паремиологических единиц обращался к труду Махмуда Кашгари "Devonu lugotit Turk", являющемуся общим источником для всех тюркских народов. На примерах показано, что пословицы, поговорки и выражения, используемые в настоящее время в речевом процессе, сохраняют смысловую устойчивость и изменяются по форме.

Ключевые слова. Паремиологическое единство, пословица, поговорка, идиома, архаизация, "Девону луготит турецкий", перенос значения, изменение формы.

HISTORICAL AND ARCHAIC MANIFESTATIONS OF PAREMIOLOGICAL UNITS IN UZBEK

Shahriddinov Almas Fakhriddin oglu,
master of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Annotation. This article reflected on the paremiological units historically formed in the language and their archaization as a result of time. In finding historical views of the paremiological units, reference was made to Mahmud Qoshgari's "Devonu lexicotit turk", a common source for all Turkic peoples. Examples of Proverbs, matals, and phrases that are now being used in the process of speech have been shown to be maintained in a sense stable, as well as changing in form.

Keywords. Paremiological unit, proverb, matal, phrase, archaization, "Devonu lugotit turk", displacement of meaning, change of form.

Paremiya – *yunoncha* chuqur ma'noli gap, hikmatli so'z, ibora, maqol, matal ma'nosini beradi. Tilning paremiologik fondi xalqning qimmatli lisoniy merosini ifodalaydi, ularning madaniyati, an'analari va tarixini aks ettiradi. Paremiyalarda xalqning oila, ish, jamiyat kabi hayot va hodisalarning turli sohalariga munosabati aks etadi.

Maqol va matallar xalq madaniyatining, ayniqsa, muhim unsuri hisoblanadi. Lingvistik paremiyalar semantik o'zgarish, poetik obrazlilik va turli xil badiiy tuzilmalar bilan xarakterlanadi. Xorijiy tilshunolar A.Teylor, V.Meader paremiologik birliklar bilan shug'ullangan. Paremiya atamasi ostida tadqiqotchilar xalqning kelib chiqishi bilan bog'liq holatda, birinchi navbatda, maqollar va so'zlar birliklarini tushunadilar.

Paremiologiya (*yun.* paroimia hikmatli so'z, zarbulmasal va logiya ta'limot ma'nolarini anglatadi):

1) ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni paremalarni o'rganadigan fan sohasi;

2) muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar paremalar tizimi.

Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tilning barcha sohalarida u yoki bu darajada o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi. Bunday o'zgarish tilning leksik sathida ancha sezilarli kichadi.

Bunda to'rt holat kuzatiladi: Birinchidan, ayrim so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi kuzatilsa, ikkinchidan, allaqachonlar iste'moldan chiqib ketgan so'zlar qayta "jonlanadi", "tiriladi", uchinchidan, yangi-yangi so'zlar paydo bo'ladi. Leksik birlik bo'lgan paremiyalar ham xuddi leksemalar kabi eskirish, arxaiklashish va yangilanish xususiyatlariga ega. Bunday xususiyatlarni tilga oid bo'lgan tarixiy asarlarda jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qo'llanganligini misollar yordamida ko'rsatib o'tamiz.

Karish yag'iri o'g'ulqa qalur [2, 499 b.]. (Ot kaftining yag'iri o'g'ilga meros qolur.) Bu birlik qadimda turkiy xalqlarda otaning biror bir yutug'i yoki kamchiligini farzandiga o'tishini anglatgan. Hozirgi kunda bu maqol "Olmaning tagiga olma tushadi" yoki "Ot o'rnini toy bosar" maqoliga to'g'ri keladi.

Tilin tugmishni tishin yazmas [2, 427 b.]. (Til bilan bog'langan tish bilan yechilmas.) Bu maqol turkiy xalqlarda va'daga vafo qilish yigit kishining ishi ekanini nazarda tutib aytilgan. Hozirgi kunda "Va'daga vafo – mardning ishi" maqoliga to'g'ri keladi.

Bushlaglansa buxluqlanur. Ushbu maqol "kishi manmanlikka borsa, o'rgatuvchini tahqir qilsa, qo'li gardanida, bo'ynida bo'ladi" ma'nosini bildirib, bemaslahat, o'zi bilganicha ish tutadigan, bironing fikrini inobatga olmaydigan, manman kishilarga nisbatan ishlatilgan. Bu paremani hozirgi tilimizdagi "Kamtarga kamol – manmanga zavol" maqoli bilan sinonim bo'la oladi deyishimiz mumkin.

Besh erangak tuz ermas. Bu maqol "Besh qo'l barobar emas" shaklida ishlatiladi. Insonlar turli xil toifada ekanligi va ular hech qachon teng bo'la olmasligini ko'rsatadi. Bu maqol hozirgi kunda ham iste'molda, faqat leksemalarda arxaiklashish hodisasi yuz bergan.

Ag'ilda o'g'laq tug'sa, ariqda o'ti unar. (Og'ilda buzoq tug'lsa, ariqda maysa unar). Bunda har bir klishining rizqi Alloh tomonidan berilishi nazarda tutiladi.

Eshyak ayur bashim bo'lsa, sundurida suv ichkayman. Bu maqol hozirgi kundagi "Bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi" maqoliga to'g'ri keladi. Bu maqol maqsadga erishish uchun uzoq umr orzu qilivchilarga nisbatan qo'llanilgan.

So'zlar qo'llanishiga davriylik nuqtayi nazaridan yondashuv ularning konseptual maydonini shakllantiradi. "So'zlarning eskirishi, ya'ni bugungi adabiy til nuqtayi nazaridan eskilik bo'yog'ini olishi turli sabablar bilan voqe bo'lishi mumkin. So'zlar, asosan, o'zi anglatgan tushunchalarning butunlay yo'qolib ketishi sababli yoki boshqa so'zlarning siquvi, "tazyiqi" bilan faol qo'llanishdan chiqib, eskirib qoladi [1, 17 b.].

Yuqorida keltirilgan misollar orqali shuni anglashimiz mumkin: davrlar o'tishi jarayonida tilning leksik qatlamida leksemalarning shakl jihatdan o'zgarishiga uchrashi, ammo ular anglatgan semalarning boshqa so'zlar orqali ifodalanishi, ya'ni arxaiklashishini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon xalqning madaniy va ma'rifiy qiyofasini ko'rsatib beradigan maqol va matallarni ham chetlab o'tmagan. Maqol va matallarda arxaiklashish hodisasi shaklga nisbatan ma'zmunda ko'proq ko'zatilgan. Ularda qo'llanilgan so'zlarning ayrimlari hozirgi kungacha o'zgarishsiz yetib kelganligining ham guvohi bo'lamiz, lekin bu so'zlar o'sha davrda boshqa so'zlar bilan birga barqarorlik holatida anglatgan tarbiyaviy ma'nolar hozirgi kunda iste'molda bo'lgan boshqa yangi barqaror holatdagi leksemalar orqali ifodalanmoqda. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, xalqning tafakkuriga singgan, hayotni idrok etish orqali erishilgan lisoniy bilimlar davrlar silsilasida yangi-yangi leksemalarda, paremeologik birliklarda o'z ifodasini topsa-da, ma'no va mohiyat insonlar shuurida yashashda davom etaveradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, paremiologik birliklar ham davrlar o'tishi natijasida turli darajada o'zgarishga uchraganini hozirgi nutq jarayonida anglash mumkin. Bu o'zgarishlar maqol va matal singari paremalarda ko'proq shakl va ma'noda kuzatilganligiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anorqulova O. Konsept-tushuncha-so'z munosabati. "Pedagogs" international research journal. Volume-53, Issue-2, March - 2024. 17-21 b.
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. Tom I II III. Toshkent, 1960-1963. 499 b.
3. G'aniyeva Sh. O'zbek frazeologizmlarining struktur-semantik tadqiqi. Toshkent, Fan, 2013, 33 b.
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. Toshkent, Fan va texnologiya, 2009, 416 b.
5. Баёнханова И.Ф. Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. СамДЧТИ, 2014. 187 б.
6. Normo'minov, S. T. (2024). She'riyatda ona obrazi tahlili (Mirtemir, A.Oripov va Muhammad Yusuf ijodi misolida). *Scientific approach to the modern education system*, 3(31), 87-91.
7. Normuminov, Ş. (2023). O'zbek tilida tasviriy so'zlarning so'z turkumlari shakllanishidagi o'rni. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRK LAD)*, 7(2), 411-415.
8. Utirovna, E.S. (2021). O'zbek tilidagi ko'makchilashayotgan ayrim so'zlar xususida. *Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi*, 2(4), 1-7.
9. Kamol o'g'li, H.H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).
10. Муродовна, Р.М. Использование водных объектов при проектировании ландшафтных объектов. *JournalNX*, 125-128.